

RAJAPOV Pirnazar Sardor o'g'li
O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
tayanch doktoranti
E-mail: rajapovpirnazar@gmail.com

SALJUQIYLAR DAVRI TARIXIGA DOIR G'ARB TADQIQOTLARI TAHLILI

АНАЛИЗ ЗАПАДНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ ПО ИСТОРИИ СЕЛЬДЖУКСКОГО ПЕРИОДА

ANALYSIS OF WESTERN RESEARCHES ON THE HISTORY OF THE SELJUK PERIOD

Annotatsiya. Ushbu maqolada g'arb sharqshunoslari va turkologlarining saljuqiylar davri tarixiga doir ilmiy-tadqiqotlari tahlil qilingan. Ta'kidlab o'tish joizki, saljuqiylar davri tarixi bilan bog'liq g'arb tadqiqotlari, asosan, ingliz va rus tillarida, qisman nemis va fransuz tillarida uchraydi. Tahlil jarayonida tadqiqotchining tarixiy jarayonlarni yoritish uslubi, tadqiqot yozilgan til, tadqiqotning tarkibi va umumiy mazmuni hamda uning bugungi kundagi nashrlari va tarjimalari kabi jihatlarga to'xtalib o'tildi. Rus tilidagi tadqiqotlarda saljuqiylar davlati siyosiy tarixi yoritilgan bo'lsa, ingliz, fransuz va nemis tillaridagi tadqiqotlarda esa, asosan, saljuqiylar davri me'moriy obidalarini va san'at asarlariga e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: Saljuqiylar, Z.V.To'g'on, Z.M.Buniyatov, S.G.Agajanov, V.M.Zaporozhets, J.A.Peacock, Klod Kaen, me'morchilik, san'at asarlari, Islom sivilizatsiyasi.

Аннотация. В статье анализируются научные исследования западных востоковедов и тюркологов по истории сельджукского периода. Следует отметить, что западные исследования, связанные с историей сельджукского периода, в основном на английском и русском языках, частично на немецком и французском языках. В ходе анализа были затронуты метод объяснения исследователем исторических процессов, язык, на котором написано исследование, состав и общее содержание исследования, а также его публикации и переводы. Исследования на русском языке освещают политическую историю Сельджукского султаната, а исследования на английском, французском и

немецком языках в основном сосредоточены на архитектурных памятниках и произведениях искусства сельджукской эпохи.

Ключевые слова: Сельджуки, З.В.Тоган, Буняттов З.М., Агаджанов С.Г., Запорожец В.М., Пикок Д.Э., Клод Каэн, архитектура, произведения искусства, Исламская цивилизация.

Annotation. This article analyzes the scientific researches of Western orientalists and Turkologists on the history of the Seljuk period. It should be noted that Western studies related to the history of the Seljuk period are mainly in English and Russian, and partially in German and French. During the analysis, the researcher's method of explaining historical processes, the language in which the research was written, the composition and general content of the research, as well as its publications and translations were touched upon. Studies in the Russian illuminate the political history of the Seljuk Sultanate, while studies in English, French and German mainly focus on the architectural monuments and works of art of the Seljuk era.

Key words: Seljuks, Z.V.Togan, Z.M.Buniyatov, S.G.Agajanov, V.M.Zaporozhets, J.A.Peacock, Claude Cahen, architecture, works of art, Islamic civilization.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonidan 2022-yil 28-yanvarda qabul qilingan PF-60 sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonining "Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish" ustuvor yo'nalishida O'zbekiston tarixini o'rganish va targ'ib qilishni yanada rivojlantirish maqsadlari belgilab berilgan [1]. Shu ma'noda aytishimiz mumkinki, Saljuqiylar sulolasi (1040-1308) hukm yuritgan davr ham O'zbekiston tarixining ajralmas qismi hisoblanadi. Chunki mazkur sulolaning kelib chiqish tarixi va davlatchilik asoslarining shakllanish jarayoni Movarounnahr hududlari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, sulola vakillari amalga oshirgan buyuk ishlari bilan tarix zarvaraqlaridan o'rin olgan.

Saljuqiylar o'g'uzlarga mansub Qiniq qabilasidan kelib chiqqan va davlatga esa O'g'uz Yabg'u davlati qo'mondoni Saljuqning nomini berishgan. Saljuqiylar 766-1055-yillarda Kaspiy

va Orol dengizi oralig'ida hukm surgan O'g'uz Yabg'u davlati parchalangach, undan ajralib chiqib Movarounnahr, Xorazm va Xuroson hududlariga kelib o'rtnashgan. Xususan, Saljuq musulmon aholi yashaydigan Jand shahrida kichik beylik tuzgan va qabiladoshlarini kuchli davlat tuzishlari uchun Islomni qabul qilishga da'vat etgan. Natijada o'g'uz qabilalarida Islomlashuv jarayoni boshlangan. Turkman deb ham ataladigan o'g'uzlarning bugungi kunda O'zbekiston, Turkiya, Ozarbayjon, Eron, Iroq va Turkmaniston davlatlarida istiqomat qiluvchi xalqlarning ajdodlari ekanini XI asrdan hozirgacha bo'lgan davrda kechgan tarixiy jarayonlar orqali bilamiz. Shuningdek, Saljuqiylar va Usmoniylar sulolalarining ham o'g'uzlardan kelib chiqqanini inobatga olsak, o'g'uzlar insoniyat tarixida muhim rol o'ynagan turkiy xalq birligi ekani tushuniladi.

O'g'uzlar Sirdaryo atrofi va uning shimolidagi dashtlarda yashashgan. Ularning bir qismi shaharlarda istiqomat qilishgan. Bu o'troq o'g'uzlar jang mashg'ulotlari olib bormaganliklari hamda shahar hayotiga ixlos qo'yganliklari uchun ko'chmanchi hamrohlari ularni mensimay "yatuk" (dangasa) deyishgan [3:5]. Darhaqiqat, ko'chmanchi o'g'uzlar o'zlarining o'troq hamrohlariga pasd nazar bilan qarashda ma'lum ma'noda haq edilari. Chunki Saljuqiylar davlatini aynan ko'chmanchi o'g'uzlar tashkil qilishgan edi.

Saljuqiylar davlatining yuzaga kelishi o'g'uz turklari tarixida muhim burilish nuqtasidir. Bu davlatning barpo etilishi bilan Islom olami ustidan siyosiy hukmronlik o'g'uzlar qo'liga o'tib, Anadolu va qo'shni davlatlar ularning yurtiga aylandi. X asr boshlarida Yaqin Sharqdagi musulmon mamlakatlari siyosiy tarqoqlikka yuz tutgan bir paytda Vizantiya imperiyasi qadam baqadam musulmonlar ta'sir doirasidagi yerlarni egallayotgandi. O'g'uz turklari ana shunday murakkab vaziyatda musulmonlar boy bergan hududlarni Vizantiyadan qaytarib olish bilan kifoyalanmay, balki uning Osiyo qit'asidagi tayanchi o'lkasi Anadoluni fath qilib, Vizantiya imperiyasining zaiflashishiga sababchi bo'lishgan.

Ta'kidlash joizki, saljuqiylar davri tarixiga oid ilmiy nashrlarga murojaat qilar ekanmiz, mazkur davrning ba'zi mavzulari hali-hanuz qorong'uligicha qolganining guvohi bo'lamiz. Buning ustiga, saljuqiylar davriga oid ilmiy-

tadqiqotlarda ham ko'p o'rinlarda bevosita mavzudan chetga chiqish, kezi kelganda muhim tarixiy voqealarga ishora qilib o'tilsa-da, lekin ularning atroflicha ochib berilmay jumboqliligicha qolganligi va hatto ma'lumotlarni asl tarixiy haqiqatga zid talqin qilish holatlari kuzatiladi.

ASOSIY QISM

Saljuqiylar tarixi XX asr o'rtalaridan keng miqyosda o'rganila boshlangan bo'lsa-da, haligacha nafaqat saljuqiylar umumiy tarixi balki ularning umumiy siyosiy tarixi to'laqonli ravishda qamrab olingan tadqiqotlar mavjud emas. Hatto, saljuqiylar davri tarixi yoritilgan manbalar va tadqiqotlarga ko'z tashlar ekanmiz, ba'zan xronologiya va geneologiya (nasl-nasab) bilan bog'liq noaniqliklarga duch kelamiz. Jumladan, Saljuqning o'g'illarining aniq soni va ularning ismlari hali-hanuz bizga jumboqli ekanligi fikrimizning dalilidir. Bu holat Islom tarixining muhim qismi bo'lgan mazkur davrning tadqiqotchilar e'tiboridan chetda qolganligidan darak beradi.

Saljuqiylar davri tarixi bilan bog'liq g'arb tadqiqotlari, asosan, ingliz va rus tillarida, qisman nemis va fransuz tillarida uchraydi. Avvalo, rus tilidagi tadqiqotlarga to'xtalib o'tamiz.

Garchi oradan bir asr o'tgan bo'lsa-da, rus turkologi, sharqshunos V.V.Bartold (1869-1930) ning Markaziy Osiyo tarixiga doir tadqiqotlari hamon o'z ahamiyatini yo'qotmagan. U "Туркестан в эпоху монгольского нашествия" nomli asarida Turkiston bilan bog'liq ravishda saljuqiylar tarixiga doir qimmatli ma'lumotlarni qayd etgan. Olim o'z qarashlarini bildirishda muhim mavzulardan yiroqlashuvi va ba'zi mavzularni atroflicha yoritib bera olmaganidan uning saljuqiylar tarixi haqida chuqur bilimga ega bo'lmagani ko'rinib turibdi.

Yana bir rus turkologi V.A.Gordlevskiy (1876-1956) ning "Государство Сельджукидов Малой Азии" nomli asarida asosan Yazijizodaning ilmiy tadqiqotlaridan foydalanilgan. Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga materialistik nuqta'i nazardan yondashgan muallif o'g'uz beylarini Yevropa feodallari bilan taqqoslagan. Olim davlat nazorati va himoyasi ostida faoliyat yuritib ishlab chiqarishga o'z hissasini qo'shgan, shuningdek, aholini

boqimandalikni tark etish va mehnatsevarlikka chaqiruvchi hamda farovon fuqarolik jamiyati barpo etish tashabbuskori bo'lgan hunarmandchilik uyushmalari vakillarining harakatlarini davlat tartib-qoidalariga bo'ysunmaslik deya baholagan. Asarda turklarni butunlay shamanga chiqarish va saroy ma'murlarining diniy amallarini riyokorlik sifatida talqin qilish holatlari uchraydi.

Zakiy Validiy To'g'on kitobning Anadolu saljuqiylari haqida qimmatli asar ekanligini ta'kidlagan. Lekin u V.A.Gordlevskiyni tarixiy voqealarga sinfiy kurash (marksistik) nuqtai nazaridan yondashgani uchun tanqid qilgan [13:114-115].

Turkiy xalqlar tarixi va madaniyatiga doir tadqiqotlari bilan mashhur bo'lgan rus arxeologi Tamara T.Rays (1904-1993) ning "Сельджуки: Кочевники – завоеватели Малой Азии" kitobi XIII asrgacha, ya'ni mo'g'ul istilosiga qadar Kichik Osiyoning markaziy va sharqiy qismidagi yirik hududlarini o'z qo'lida ushlab turgan Anadolu saljuqiylariga bag'ishlangan. Shuningdek kitobda ularning madaniy hayoti, xususan, adabiyoti, me'morchiligi va o'ziga xos haykaltaroshligi hamda ajoyib amaliy san'at durdonalari bilan bog'liq ma'lumotlar ham uchraydi.

Ozarbayjonlik tarixchi, akademik Z.M.Buniyatov (1923-1997) ning "Государство атабеков Азербайджана (1136-1225 годы)" monografiyasida Saljuqiylar davlatining parchalanish bosqichlari, Ozarbayjon va Arron otabekliklarining yuzaga kelish, yuksalish va tarix sahnasidan ketish jarayonlari haqida so'z boradi. Tadqiqot Ozarbayjon otabekligidagi davlat boshqaruv tizimi, yerga egalik qilish munosabatlari, soliq tizimi, hunarmandchilik va me'morchilik rivoji, shaharlar hayoti va itimoiy-madaniy muhit bilan bog'liq jihatlarni o'zida aks ettirgani nuqta'i nazaridan muhim ahamiyatga ega.

Z.M.Buniyatovning mazkur monografiyasi SSSRning 1980-yilgi ilmiy yig'inlarida katta qiziqish bilan kutib olinib, Sobiq Ittifoq miqyosida fan va san'at asarlari uchun beriladigan oliy mukofotga loyiq deb topilgan [11:224-225]. Asar rus va ozarbayjon tillarida nashr qilingan.

Rus tarixchisi L.A.Semyonova (1925-2005 [15]) ning "Из истории средневековой Сирии Сельджукский период" monografiyasida

Suriyaning XI-XII asrlardagi siyosiy tarixi, ijtimoiy hayoti, ichki va tashqi savdosi hamda hunarmandchiligi bilan bog'liq jarayonlar arab manbalari asosida bayon qilingan. Saljuqiylar davrida Suriyadagi asosiy ishlab chiqarish tarmog'i bo'lgan agrar munosabatlar, xususan, iqto' yer egaligini tahlil qilishga alohida e'tibor qaratilgan. Kitobning II qismida esa XIII asr I yarmida yashab o'tgan arab tarixchisi Kamoliddin ibn al-Adimning "Zubdatul-Halab min tarixi Halab" asaridan tarjimalar keltirilgan.

Turkmanistonlik taniqli tarixchi S.G.Agajanov (1928-1997) ning saljuqiylar tarixiga oid tadqiqotlaridan haligacha Rossiya va Yevropada saljuqiylar davri tarixshunosligi bo'yicha asosiy adabiyot sifatida foydalaniladi. Olimning ilk tadqiqoti "Очерки истории огузов и туркмен Средней Азии IX-XIII вв." bo'lib, ayni paytda shoh asari ham hisoblanadi [12:5]. Ta'kidlash joizki, asarning Buyuk Saljuqiylar saltanatidan oldin hukm surgan O'g'uz Yabg'u davlati va o'g'uz qabilalari yashagan hududlar bilan bog'liq tarixiy-geografik ma'lumotlari tadqiqotchilar uchun nihoyatda muhim. Xususan, 800 ga yaqin bosma va qo'lyozma manbalarni tadqiq qilish orqali saralab olinib asarga kiritilgan ma'lumotlar o'g'uzlar tarixining bizga noma'lum bo'lgan jihatlarini ochib berishga xizmat qiladi. Shuningdek, asarda saljuqiylarda davlatchilik asoslarining shakllanishi va ularning fath yurishlari hamda Saljuqiylar davlatida o'g'uz va turkman qabilalarining tutgan o'rni haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Uning "Государство Сельджукидов и Средняя Азия в XI-XII вв." asari Markaziy Osiyoning Saljuqiylar hukmronligi davridagi tarixi yoritilgan ilk ilmiy-tadqiqot hisoblanadi. Asarda Saljuqiylar saltanatining beshigi bo'lgan Markaziy Osiyoda mazkur saltanat vujudga kelishining shart-sharoitlari, taraqqiy etishi, tanazzulga uchrab alohida mulk va davlatlarga parchalanish bosqichlari bilan bir qatorda saljuqiylar davridagi shaharlar hayoti hamda qishloq xo'jaligi rivoji, hunarmandchilik va savdo-sotiq sohalarida qo'lga kiritilgan yutuqlar ochib berilgan.

S.G.Agajanov bugungi kunda Sovet davri tarixshunosligi vakillarining o'g'uzlar va saljuqiylar tarixini o'rganish bo'yicha ko'zga ko'ringan namoyandalaridan biri sifatida tilga

olinadi. Tadqiqotlaridagi marksistik-leninistik qarashlar va sotsialistik mafkuralarni hisobga olmaganda, Agajanovning asarlari saljuqiylar davri tarixi bo'yicha qimmatli manba hisoblanadi.

Ozarbayjonlik turkolog, kavkazshunos R.A.Husaynzoda (1929-yil tug'ilgan) ning "Сельджукская эпоха истории Кавказа" monografiyasi XI asrdan XIII asr boshlarigacha bo'lgan davrda Saljuqiylar sultonligi va Kavkaz xalqlari munosabatlari tarixiga bag'ishlangan. Tadqiqotda muallif saljuqiylar va Kavkaz xalqlari o'rtasida munosabatlar o'rnatilishi natijasida Kavkaz xalqlari hayotida kuzatilgan itimoiy-siyosiy, iqtisodiy, etnik, diniy va hududiy o'zgarishlarni ochib bergan. Shuningdek, Kavkaz xalqlarining keyinchalik ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, etnik va diniy jihatdan rivojlanishini mazkur o'zgarishlar bilan bog'lashga harakat qilgan.

Turkmanistonlik arxeolog, numizmat Tirkesh Xo'janiyozovning "Денежное обращение в государстве Великих Сельджуков" kitobi Buyuk Saljuqiylar davlatining tanga-pul muoamalasi tarixiga bag'ishlangan. Xususan, asarda saljuqiylar davri ilk tanga-pullari zarb etila boshlangan paytdan to sulolaning so'nggi vakili Sulton Sanjar vafotigacha bo'lgan davrdagi pul muoamalasi batafsil yoritilgan. Numizmatik ma'lumotlarga tayangan holda davlatning siyosiy tarixi ham ochib berilgan.

Rus tadqiqotchisi V.M.Zaporojetsning "Сельджуки" nomli kitobi sodda va ravon tilda yozilgan bo'lib, unda turkiy xalqlarning VI-X asrlar oralig'idagi tarixi, Saljuqiylar davlatining yuzaga kelishi, saltanat sarhadlarining kengayishi, XI-XII asrlarda Markaziy Osiyo va Yaqin Sharq hududlaridagi harbiy-siyosiy jarayonlar, XII-XIII asrlarda Kichik Osiyo aholisi dini va etnogenezi bilan bog'liq o'zgarishlar va Saljuqiylar davlatining parchalanish jarayonlari ochib berilgan. Muallif tadqiqotda o'rta asr nodir manbalaridan foydalangan va shu bilan birga saljuqiylar davri shaharlarining xaritalari va o'ymakor naqshlar solingan me'moriy obidalar rasmlarini ham ilova sifatida keltirgan. Asar rus va ingliz tillarida nashr qilingan.

Ozarbayjonlik tarixchi Sh.M.Mustafayev (1962-yil tug'ilgan) ning "От сельджуков к османам" kitobida XI asrda o'g'uz-turkman

qabilalarining Kichik Osiyoga kirib kelishidan to XV asr oxirida u yerda usmoniylar siyosiy nazorati to'liq o'rnatilishigacha bo'lgan davrdagi murakkab etnosiyosiy jarayonlar xronologik ketma-ketlikda bayon qilingan. Muallif turli manbalarni tadqiq qilish orqali o'rta asrlarda turkiy xalqlar etnosining shakllanish bosqichlarini tahlil qilishga hamda Anadoludagi etnik integratsiya jarayonlari va siyosiy o'zgarishlarni bir-biriga muvofiqlashtirishga harakat qilgan. Shuningdek, asarda saljuqiylar davrida Anadoluda turkiy etnomadaniyatning shakllanish xususiyatlari, Anadolu Saljuqiylar davlatining mo'g'ullar istilosi natijasida parchalanib, beyliklarga bo'linib ketish jarayonlari ochib berilgan.

Saljuqiylar davri tarixiga oid ingliz, fransuz va nemis tillaridagi tadqiqotlarda esa, asosan, saljuqiylar davri madaniy hayoti aks etgan. Ingliz sharqshunosi A.S.Lambton (1912-2008) "Landlord and Peasant in Persia" asarida saljuqiylar davridagi yerga egalik qilish munosabatlari, xususan, iqto' tizimiga ham to'xtalib o'tgan. Biroq muallif saljuqiylar tarixi bilan bog'liq manbalar va tadqiqotlardan foydalanishda cheklangani bois iqto' tizimining mohiyatini to'liq ochib bera olmagan va saljuqiylar davrida bu mulkchilik shaklida kuzatilgan o'zgarish va yangiliklar ham tilga olinmagan.

Hindistonlik tarixchi, advokat M.F.Sanaullohning "The decline of the Seljuqid empire" kitobida sulton Malikshoh vafotidan keyin Saljuqiylar saltanati yuz tutgan siyosiy inqiroz bayon qilingan bo'lib, mazkur asar ham saljuqiylar davri tarixi bo'yicha diqqatga sazovor asar hisoblanadi.

Ingliz tarixchisi A.Peacock (1976-yil tug'ilgan) ning "The Great Seljuk Empire" kitobi Saljuqiylar davlatining umumiy tarixi ingliz tilida batafsil bayon qilingan ilk tadqiqot hisoblanadi. Kitobda tarixiy voqealar xronologik ketma-ketlikda yoritilgan. Muallif saljuqiylarning kelib chiqish tarixi va ularning muxoliflari bo'lmish ko'chmanchi turklar bilan qo'shnichilik aloqalarining davom etishi bilan bog'liq jihatlariga hamda saljuqiylar davlati boshqaruv tizimi va diniy hayotiga alohida to'xtalib o'tgan.

A.Peacockning S.N.Yildiz bilan hammualliflikda yozgan "The Seljuks of Anatolia"

kitobida esa XII-XIII asrlarda saljuqiylar sulolasining Anadolu va butun G'arbiy Osiyo ijtimoiy-siyosiy, diniy va madaniy hayotiga ta'siri va natijada ro'y bergan o'zgarishlar ochib berilgan. Xususan, saljuqiylarning Anadoluda Islom madaniyati shakllanishidagi tutgan o'rnini alohida ta'kidlab o'tishgan. Shuningdek, Vizantiya imperiyasi va nasroniylarga xos xususiyatlar saljuqiylar hayotida hukmron bo'lganidan tortib to aholi orasida tasavvuf tariqati vakillarining ahamiyati va obro'-e'tibori ortgunigacha qadar bo'lgan davr dagi diniy o'zgarishlar tahlil qilingan.

Ingliz tarixchisi Richard P. McClaryning "Rum Seljuq Architecture, 1170-1220" kitobida Anado'lu (Rum) saljuqiylari davrining me'moriy yodgorliklari, xususan, saroy, minora va kasalxonalar hamda turli xil binolarga tushirilgan naqsh va bezaklarga tavsif berilgan. Muallif o'zni kelganda siyosiy tarix bilan bog'liq ma'lumotlarni ham keltirib o'tgan.

Fransuz sharqshunosi Klod Kaen (1909-1991) ning saljuqiylar tarixi bilan bog'liq ilmiy nashrlari "Maliknoma" asari va saljuqiylarning kelib chiqish tarixi, Islom manbalariga ko'ra Malazgirt muhorabasi, saljuqiy turklarning Anadoluga kirib kelishi, Anadolu turkmanlari kabi mavzulardan iborat. Uning asosiy asari salibchilar davridagi Shimoliy Suriya tarixi yoritilgan kitobidir [9:21].

Xususan, olimning "La Turquie pré-ottomane" nomli asarida saljuqiylarning Anadoluga kirib kelishidan boshlab ularning Vizantiya imperiyasiga qarshi olib borgan kurashlari, Anadoluda aholining turkiylashish jarayoni hamda bu yerdagi saljuqiy turklar jamiyati va ularning davlat tuzilmalari faoliyati ochib berilgan. Anadolu Saljuqiylar davlatining ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga xolisona yondashgan muallif mo'g'ullar istilosi va undan keyin vujudga kelgan beyliklar davriga ham to'xtalib o'tgan. Asar ingliz va turk tillariga tarjima qilingan. Olimning saljuqiylar tarixiga doir ilmiy-tadqiqotlarida ma'lum bir davr yoki muayyan masalada uzviylik bo'lmasa-da, qimmatli ma'lumotlarga asoslangan mazkur tadqiqotlar yangi g'oyalar bilan sayqallangani yaqqol ko'zga tashlanadi.

Avstriyalik sharqshunos P.Vitte (1894-1978 [16]) Saljuqiylar davlati va Vizantiya imperiyasi

qo'shnihilik munosabatlariga oid tadqiqotlari bilan nom qozongan bo'lib, uning eng muhim asari "Das Furstentum Montesche" monografiyasidir.

P.Vitte "The Rise of the Ottoman Empire" monografiyasida Anadolu fathi va u yerda aholi turkiylashuvida Saljuqiylar davlati sarhadlarini qo'riqlovchi g'ozilar (donishmandiylar) rolini nihoyatda bo'rttirib yuborgan va bu hodisada asosiy ro'l o'ynagan saljuqiylar va turkmanlarni ulardan keyingi o'ringa qo'ygan [10:27-47]. Lekin bu mubolag'ali nazariya tarixiy haqiqatga mos kelmaydi va uni manbalar bilan asoslay olmaymiz.

Vizantiya imperiyasi va salibchilar tarixiga oid tadqiqotlar saljuqiylar, xususan, Kichik Osiyoning o'rta asrlar davri tarixini o'rganishda muhim o'rin tutadi. Jumladan, fransuz tarixchisi Ch.Lebeau (1701-1778) ning "Histoire du Bas-Empire" va shotland tarixchisi J.Finlay (1799-1875) ning "A History of Greece" kabi Vizantiya tarixiga oid monografiyalarida Saljuqiylar sultonligi va Vizantiya imperiyasining qo'shnihilik munosabatlari haqida ma'lumotlar uchraydi.

Saljuqiylar davri me'moriy obidalarini va san'at asarlari bilan bog'liq tadqiqotlar ham mavjud. Ular orasida avstriyalik san'atshunoslar J.Strizigovskiy (1862-1941) ning "Türkler ve Orta Asya Sanatı Meselesi" va H.Glyuk (1889-1930) ning "Die Kunst der Seldschuken in Kleinasien und Armenien" saljuqiylar davri san'ati haqidagi umumiy va o'zgacha qarashlar ilgari surilgan asarlari alohida ajralib turadi.

Shvetsariyalik sharqshunos Van Berhem (1863-1921), turk muzeyshunosi X.Adham (1861-1938) va fransuz san'atshunosi A.Gabriel (1883-1972) markaziy va sharqiy Anadoludagi, nemis diplomati J.Loytved (1874-1917) va nemis san'atshunosi F.Sarre (1865-1945) Ko'nyo shahri va uning atrofidagi, yana bir nemis san'atshunosi R.Riefstael (1880-1936) janubi-g'arbiy Anadoludagi me'moriy yodgorliklar hamda nemis tarixchisi K.Erdmann (1901-1964) saljuqiylar davri karvonsaroylariga doir tadqiqotlar olib borgan.

Amerikalik sharqshunos A.U.Pope (1881-1969) "An Introduction to Persian Art" asarida saljuqiylar davri Eron san'atiga ham to'xtalib o'tgan. Shu o'rinda eslatib o'tish joizki, ba'zi nashrlarda Islom o'lkalaridagi, xususan, Erondagi

saljuqiylar davri san'at asarlarining ijodkorlari sifatida eronliklarga urg'u berilgan o'rinlarga duch kelishimiz mumkin.

Shuningdek, saljuqiylar davri me'morchiligini o'rgangan ba'zi olimlar tarixiy manbalarda bu sohaga doir ma'lumotlar nihoyatda kamligi bois qo'pol xatolarga yo'l qo'yishgan. Jumladan, Van Berhem, X.Adham va A.Gabriel kabi tadqiqotchilar o'z asarlarida Qaysariya shahridagi Sulton masjidida ba'zi eski ustunlar mavjudligiga asoslanib, cherkov binosi masjidga aylantirilganini ta'kidlab o'tishgan [2:32; 4:17; 14:89]. Lekin suryoniy Mixail "voqeanoma"sida donishmandiylardan Malik Muhammad (1134-1142) uzoq vaqt mobaynida xaroba holidagi qolgan Qaysariya shahrini qayta tiklaganini va vayron bo'lgan ibodatxonalar qoldiqlaridagi marmar toshlari qurilish ishlarida foydalanilganini qayd etgan [7:237]. Bu ma'lumotlardan cherkov ustunlarining masjidga qanday kelib qolgani va cherkov binosi masjid qilingani haqidagi fikrlar noto'g'ri va asossiz ekani ma'lum bo'ladi.

Yuqoridagilarga qo'shimcha sifatida aytib o'tish joizki, Qaysariya-Sivas yo'lida Alouddin Kaykubod I (1220-1237) tomonidan barpo etilgan Sulton karvonsaroyining qurilish sanasi bizga noma'lum bo'lsa-da, A.Gabriel uni aniqlashga harakat qilgan. Xususan, olim karvonsaroy qurilgan davr va uning hammomi haqida ba'zi sayyohlar ilgari surgan taxminlarni rad etgan. Shu bilan birga, karvonsaroyi kim qurdirganiga oydinlik kiritma olmaganiga qaramay, "Monuments turcs d'Anatolie I" asarida uning qurilish sanasini 1252-yil deb, qayd etgan [8:479-480]. Karvonsaroy Alouddin Kaykubod I davrida bino qilinganini hisobga olsak, 1237-yildan oldin qurilganligi kelib chiqadi.

Ushbu nashrlarni ko'zdan kechirish orqali saljuqiylar davri tarixining ba'zi mavzulari hali-hanuz qorong'ulikicha qolganining guvohi bo'lamiz.

Fransuz sharqshunosi J.Sauvaget (1901-1950) ning ta'kidlashicha, Saljuqiylar saltanati yuzaga kelgach, o'zi bilan birga yangicha tafakkur va turmush tarzi hamda yangi an'analarni olib keldi va natijada "Islom sivilizatsiyasida yangilanish" ro'y berdi. Mazkur yangilanish XI asrdan keyin

Yaqin Sharq tarixining kaliti vazifasini bajargani va hatto Yevropa tarixi bilan har taraflama bog'liqligi kuzatilganiga qaramay, "Yevropa sharqshunoslarining o'z tadqiqotlarini Misr va boshqa mavzularda jamlaganligi" bu davr tarixi qorong'ulikicha qolishining asosiy sababidir [6:151-167; 9:28].

Saljuqiylar tarixiga oid tadqiqotlar va ma'lumotlarning yetarli darajada emasligi bu davr tarixi bo'yicha mutaxassis bo'lmagan ayrim olimlarda saljuqiylar haqida salbiy fikrlar tug'ilishiga sabab bo'lgan. Jumladan, fransuz sharqshunosi E.Renan (1823-1892) va nemis sharqshunosi T.Nyoldeke (1836-1930) o'z his-tuyg'ulariga berilib, Islom sivilizatsiyasi tarixida yangi bosqich va yangicha turmush tarzi shakllanishiga sababchi bo'lgan saljuqiylar bilan boshlangan turkiy sulolalar hukmronligini Islom tamadduni cho'kishidagi asosiy omil deb bilishgan [9:391]. O'rta asr musulmon mutafakkirlari esa Islom sivilizatsiyasining zavorlga yuz tutishida Eronda yuzaga kelgan dualistik qarashlar, Ismoililik tarafdorlarining faoliyatlarini ham e'tiborga olish bilan bir qatorda asosiy omil sifatida mo'g'ul istilosini ko'rsatishgan.

XULOSA

Xulosa qilib aytish mumkinki, saljuqiylar davri tarixining ba'zi mavzulari hali-hanuz qorong'ulikicha qolgan. Buning ustiga, saljuqiylar davriga oid ilmiy-tadqiqotlarda ham ko'p o'rinlarda bevosita mavzudan chetga chiqish, kezi kelganda muhim tarixiy voqealarga ishora qilib o'tilsa-da, lekin ularning atrofligicha ochib berilmay jumboqliligicha qolganligi va hatto ma'lumotlarni asl tarixiy haqiqatga zid talqin qilish holatlari kuzatiladi.

Ushbu holat bir tomondan saljuqiylar davriga doir tadqiqotlarning yetarli emasligi bilan bog'liq bo'lsa-da, ikkinchidan, Xitoy chegaralaridan to O'rta yer dengizi qirg'oqlarigacha bo'lgan ko'plab o'lkalar va xalqlarning tarixini qamrab olgan davrni o'rganishda tadqiqotchilar duch keladigan murakkabliklar bilan ham izohlashimiz mumkin. Shuningdek, saljuqiylar davri tarixi yoritilgan manbalarning kamligi va ularda ma'lumotlarning

tarqoq holda keltirilgani hamda turli tillardagi manbalarining mavjudligini ham e'tibordan chetda qoldirmasligimiz kerak.

Bundan tashqari, saljuqiylar davri tarixi deyilganda tor ma'noda Saljuq naslidan bo'lgan sulola vakillari tomonidan asos solingan davlatlar tarixi nazarda tutilsa-da, keng ma'noda ko'plab turkman beylari, otabeklar va amirlar tomonidan barpo etilgan davlatlar va saljuqiylar davlatiga tobe bo'lgan ko'plab hukmdorlar, jumladan, qoraxoniylar xoqonlar va g'aznaviylar sultonlar hukmronligi davri tarixini ham o'z ichiga olganligi bu katta davr, saljuqiylar davri, tarixini o'rganishni qiyinlashtiradi.

MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60 sonli "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni // <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>
2. A.Gabriel. Monuments turcs d'Anatolie. Vol. 1. – Paris: E. de Boccard, 1931. – 166 p.
3. Sümer F. Oğuzlar. – Ankara: Ankara üniversitesi Dil ve tarih-coğrafya fakültesi yayınları, 1972. – 574 s.
4. Edhem H. Kayseriye şehri. – İstanbul: Matbaa-i Orhaniye, 1915. – 150 s.
5. Strzygowski J. Türkler ve Orta Asya Sanatı Meselesi // Türkiye Mecmuası. C.3 (1926-1933). – İstanbul, 1935. – S. 1-80.
6. Sauvaget J. Introduction to the History of the Muslim East. – Los Angeles: University of California Press, 1965. – 252 p.
7. Michel le Syrien. Chronique (J.-B.Chabot). Tome III. – Paris: E.Leroux, 1910. – 562 p.
8. Osman Turan. Selçuk kervansarayları // Belleten. Sayı: 39. – Ankara: Türk Tarih Kurumu, 1946. – S. 472-496.
9. Osman Turan. Selçuklular Tarihi ve Türk-İslâm Medeniyeti. – İstanbul: Turan, 1969. – 478 s.
10. P.Witte. Osmanlı İmparatorluğu'nun doğuşu (Çev. Fatmagül Berktaş). – İstanbul: Pencere, 1995. – 68 s.
11. Qiyas Şükürov. Bünyadov, Ziya // Türkiye Diyanet Vakfı İslâm Ansiklopedisi. EK-C.1. – Ankara: TDVY, 2020. – S. 224-225.
12. S.G.Agacanov. Oğuzlar (Çev. E.N.Necf, A.Annaberdiyev). – İstanbul: Selenge, 2002. – 454 s.
13. Turgut Akpınar. Gordlevski, Vladimir Aleksandroviç // Türkiye Diyanet Vakfı İslâm Ansiklopedisi. C.14. – İstanbul: TDVY, 1996. – S. 114-115.
14. Van Berchem, Epigraphie des Danishmendides // Zeitschrift für Assyriologie und verwandte Gebiete. Vol. 27, 1912. – P. 85-91.
15. <https://www.islamrf.ru/news/russia/rusinterview/25906/> // rus tarixchisi L.A.Semyonova tarjimayi holi haqidagi ma'lumot.
16. https://en.wikipedia.org/wiki/Paul_Witte // avstriyalik sharqshunos P.Vitte tarjimayi holi haqidagi ma'lumot.